



efficacy and agency of teachers at one school Think Ski Creat

42:100951. <https://doi.org/10.1016/j.tsc.2021.100951>

[Article Google Scholar](#)

19. Davis N, Eickelmann B, Zaka P(2013) Restructuring of educational systems in the digital age from a co-evolutionary perspective J Comput Assist Learn 29:438–450. <https://doi.org/10.1111/jcal.12032>

[Article Google Scholar](#)

20. De Belli N (2009) Bibliometrics and citation analysis: from the science citation index to cybermetrics, Scarecrow Press. <https://doi.org/10.1111/jcal.12032>

21. Domínguez A, Saenz-de-Navarrete J, de-Marcos L, Fernández-Sanz L, Pagés C, Martínez-Herráiz JJ(2013) Gamifying learning experiences: practical implications and outcomes Comput Educ 63:380–392. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2012.12.020>

22.

MAKTAB INFORMATIKA O‘QITUVCHISINING METODIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISHDA KASBIY KOMPETENTLIKNING O‘RNI

M. Berdibaev

Nuks davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

M. Babanazarova

Innovatsiya instituti assistent o‘qituvchisi

Summary: In the thesis, the role of professional competence in the formation of methodical preparation of students in increasing their creative activity is considered. Pedagogical and psychological tasks that students should solve in the process of creative thinking on the basis of competence are defined in the thesis.

Key words: competence, special competence, social competence, personal competence, individual competence.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturiga asosan O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi. Qo‘yilgan



maqsadlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ta'lim sohasi uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash sifatiga, ularning kasbiy kompetentligiga bevosita bog'liqdir. Chunki yoshlar tarbiyasi, ularning o'z vataniga sadoqatli, vatanparvar, hozirgi jamiyatda izlanuvchan, kommunikativ, faol yoshlarni tarbiyalay olishni faqat kompetentli o'qituvchigina amalga oshirishi mumkin.

Uzluksiz ta'limni takomillashtirishning asosiy omili o'qituvchilarga bog'liq bo'lib, ular o'z zimmlariga hozirgi jadal va tezkor o'zgarishlarni amalga oshirish majburiyatini olishlari zaruriy shart bo'lib, ular yangi muammolarni hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lishlari zarur. Bu muammoni hal qilishga jamoatchilikni va ota-onalarni safarbar qilish kerak bo'ladi.

Aynan ana shu muammo hozirgi zamon o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish eng dolzarb muammo ekanligini ko'rsatadi.

Kompetentsiya – inglizcha “competence” lug'aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi.

Kompetentsiyalarning yig'indisini (sohasida samarali faoliyat zarur bo'lgan bilim va tajribaning mavjudligini) kompetentlik deb ataydi.

Kasbiy kompetentsiya – ma'lum sohadagi professional vazifalarni bajarishda xodimning amaliy tajribalari hamda egallagan bilim, ko'nikma va malakalari asosida samarali harakatlanish qobiliyatidir.

Informatikada kompetentlik bilim va amaliy tajribalarning yig'indisi yoki aniq ish joyi, yoki bajarilayotgan ishning o'zgarib turadigan talablariga mos ta'sir qilishga imkon beradigan umumiy va kasbiy tayyorgarlik darajasidir.

Kompetentlik va kompetentsiyalar o'rtasida to'g'ri va inversion bog'liqliq mavjud. N.A.Muslimov ilmiy izlanishlarida kasbiy kompetentsiyalarning bir qancha turlarini ko'rsatadi:



- **maxsus kompetentsiya** – o‘z kasbiy faoliyatini etarli darajada yuqori egallash; keyingi kasbiy rivojlanishni loyihalashtira olish;
- **ijtimoiy kompetentsiya** – hamkorlikdagi kasbiy faoliyatni egallash, o‘z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik;
- **shaxsiy kompetentsiya** – mustaqil shaxsiy aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy deformatsiyalariga qarshi turish vositalarini egallash;
- **individual kompetentsiya** – kasb doirasida individuallikni mustaqil qo‘llash va rivojlantirish usullarini egallash, individual – kasbiy o‘rish, mustaqil ishlarni tashkil qilish va mustaqil rehabilitatsiya qilishga tayyorlik;
- **asosiy kompetentsiyalar** – moslashish va mahsuldor faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsning madaniyatlararo va sohalararo bilim, qobiliyat va ko‘nikmalari [1].

SHu o‘rinda rus pedagog olimi YU.K.Babanskiy “kompetentlik” va “kompetentsiya” tushunchalarini o‘ziga xos tarzda talqin qiladi va quyidagi qismlarga ajratadi:

1. **O‘z-o‘zini anglash kompetentsiyasi** – o‘qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri bilan bog‘liq, ravishda namoyon bo‘ladi. U pedagog sifatida atrof-muhitdagi voqea va hodisalarni mohiyatini ko‘radi va tushunadi, bo‘nga o‘zini yo‘naltiradi, o‘z fikrini asoslay oladi, vaziyatga qarab muammo echimini topa oladi.
2. **Umummadaniy-milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lish kompetentsiyasi** – mamlakatning hayotida ishtirok etishi, milliy urf-odatlariga hurmat, ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, ilm fanning yangiliklarini inson hayotidagi o‘rni va bu ma’lumotlarni tushuntira olishi.
3. **O‘quv, biluv jarayoni kompetentsiyasi** – o‘qituvchining mustaqil bilish faoliyati, mantiqiy fikrlashi, o‘quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko‘nikmalarini tahlil qila olishi.
4. **Ma’lumotga ega bo‘lish kompetentsiyasi** – pedagogik faoliyati, o‘z faniga doir ma’lumotlarni egallash ko‘nikmasi.



5. **Muloqatchanlik kompetentsiyasi** – til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqatda bo‘lishi, jamoada o‘ziga xos o‘rinda turishi.

6. **Ijtimoiy-foydali mehnat kompetentsiyasi** – jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi, iqtisodiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi.

7. **O‘z ustida ishlash kompetentsiyasi** – jismoniy, ma‘naviy, intellektual jihatdan o‘zini-o‘zi rivojlantirib borishi [2].

Endilikda har bir pedagog umumiy va kasbiy kompetentlikga ega bo‘lishigina emas, pedagogik nazariyani, kontsepsiyani va innovatsion texnologiyalarni faol, ijodiy tarzda o‘zlashtirishi ham kerak. Shundagina har bir bo‘lajak informatika kasbiy kompetentlikni egallab, kasbiy va metodik malakani o‘zlashtirgan holda psixologik-pedagogik tayyorgarlik tajribasida mustaqil ta‘limning funktsiyalarini hamda o‘z kasbiy faoliyatini mustaqil loyihalash usullarini tatbiq etib boradi.

Xulosa qilib aytganda, faqat bizning davlatimizdagina o‘qituvchilarga juda katta e‘tibor qaratilgan. Bugun o‘qituvchi e‘tiborda va hurmatda. Ana shu hurmatni yo‘qotmaslik o‘qituvchining o‘zini qo‘lida. Kompetentsiya ham, kompetentlik ham mutaxassisning kasbiy pedagogik faoliyatiga tayyorlik darajasi, sifatining integral tavsiflari bo‘lib hisoblanadi.

Kompetentsiya o‘qituvchining informatika tayyorlik darajasi me‘yorini, kompetentlik esa mutaxassisda, avvaldanoq, shakllantirilgan, bilimlarga asoslangan, maktabdagi haqiqiy ta‘limiy, tarbiyaviy faoliyati va ish tajribasi bilan mustahkamlangan, amaliy jihatdan tayyorgarligini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish. –T.: Fan, 2014. –124 b.
2. Babanskiy YU.K. Izbrannyye nauchnyye trudy. –M.: Pedagogika, 1989. – 574 s.